

## KARPSIMON BALIQ KASALLIKLARINING KELIB CHIQISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH

***Temirova Nilufar Tojinorovna<sup>1</sup>***

*<sup>1</sup>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali q.x.f.f.d., (PhD)*

[nilufar.temirova@inbox.ru](mailto:nilufar.temirova@inbox.ru)

***Murodov Botir Yoqubovich<sup>2</sup>***

*<sup>2</sup>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali Assistenti*

***Nodirova Dildora Bahodir qizi***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali talabasi*

***Annotatsiya.*** Maqolada baliqlarning sifatiga ta'sir etuvchi omillar, kasallik keltirib chiqaruvchi parazitlar, mikroorganizmlar, suv o'tlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, baliqlarda mikozi kasalliklarni zamburug'larning 2 turi - *Branchiomyces sanguinis*, *Branchiomyces demigrans* keltirib chiqarishligi, ushbu zamburug'ning oyqulog'ining qon tomirlarida giflarining yig'ilib qolishi natijasida baliqlarda qon aylanish jarayoni buzilib nobud bo'lishi kuzatilgan. Kasalliklarga qarshi kurashish to'g'risida qisqacha tavsiyalar berilgan.

***Аннотация.*** В статье даны сведения о влиянии на качество рыб таких факторов как: паразиты, микроорганизмы и водоросли. На примере рассматривается два вида грибов *Branchiomyces sanguinis*, *Branchiomyces demigrans*, которые в свою очередь губят кровеносную систему рыб, что приводит к гибели рыбы. Приводится краткая рекомендация по борьбе с заболеваниями.

**Annotation.** *The article discusses the influence of the quality of fish on such factors as: parasites, microorganisms and algae. An example considers two types of fungi Branchiomyces sanguinis, Branchiomyces demigrans, which in turn destroy the circulatory system of fish, which leads to the death of fish. A brief recommendation for combating this disease is given.*

**Ключевые слова:** водоём, болезнь, паразит, гриб, сапрофит, водоросли, метиловый синий.

**Kalit so'zlar:** xavza, kasallik, parazit, zamburug', saprofit, suv o'tlari, metil ko'ki.

**Key words:** reservoir, disease, parasite, fungus, saprophyte, algae, methylene blue.

Suv havzalaridagi baliq maxsuldorligiga baliq kasalliklari katta ta'sir ko'rsatadi. Baliq kasalliklari invaziyasida baliqlarning jinsiy organlari jiddiy zararlanishi natijasida baliq zahiralarining keskin kamayishi kuzatiladi. Boshqa bir turdagi invaziya natijasida esa baliqlarda ko'zining ko'r bo'lib qolishi, oqibatda oziqlana olmasligi va holdan toyishi, ixtiofaglar, asosan baliqxo'r qushlarning o'ljasiga aylanishi natijasida nobud bo'lishi qayd qilinadi. Baliq kasalliklari ta'sirida baliqchilik xo'jaliklari juda keng ko'lamda iqtisodiy zarar ko'radi, masalan qizilcha kasalligi, kostioz to'garak chuvalchang va boshqalar. Baliqlar sifatiga ta'sir etuvchi omillar: oziqlanishi, masofa, jins va nerest, parazitlar, patogen mikroorganizmlar va boshqalar hisoblanadi. Baliqchilik xavzalarida baliq yetishtirish intensivligini oshirishda baliqlarda uchraydigan kasalliklarning oldini olish muhim rol o'ynaydi. Suv xavzalarining turli ekologik omillari parazit-xo'jayin orasidagi munosabatlarga ta'sir etadi. Parazitlardan Diphyllbothridae oilasiga mansub Ligula intestinalis baliq yetishtirishda katta iqtisodiy zarar yetkazishligi ma'lum. Baliq kasalliklari bo'yicha tadqiqotlar umumiy qabul qilingan usullar yordamida olib borildi[1,2,3].

Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti suv xavzalarida olib borilgan parazitologik tadqiqotlarda bu parazit sestodasining invazion lichinkasi — pleroserkoidi baliqlarning asosan karp, oq amur va oq do'ngpeshona baliqlarining

turli yoshdagilari, ya'ni bir yozgilar (segoletkalari) va 2-3 yoshdagilari yorib ko'rilganda ularning qorin bo'shlig'ida ko'p uchrashligi va ularning ichki organlari atrofiyaga uchraganligi, qorin devori yorilib baliqlar 15 % gacha nobud bo'lishligi kuzatildi. Yana bir kasallik qizilcha kasalligi bo'lib sun'iy xavzalarda eng ko'p tarqalgan yuqumli kasallikdir. Kasallikning tarqatuvchisi yoki qo'zg'atuvchisi aniqlanmagan. Qizilcha kasalligining o'tkir va surunkali formalari mavjud. O'tkir formasining belgilari: baliqning butun tanasida qip-qizil yarachalar bosadi, ular kam harakat bo'lib, o'smaydi, ularni bemalol qo'lga olasiz, qochmaydi. Qo'lga olgandan keyin qo'l bilan qorin tomoni bosilganda anal teshigidan shilimshiq modda chiqadi. Tadqiqotlar davomida qizilchaning xronik (surunkali ) yallig'lanishi yozning o'rtalarida kuzatildi. Kasal bo'lgan baliq tanasida qoramtir-qizg'ish aylanma pufaklar paydo bo'lib, to 2% gacha bitmaydigan yaraga aylanadi. Agarda yaralar bitib ketsa ularning o'rnida chandiqli qolishligi kuzatildi. Chandiqli qizilchada baliqlarning 10-20% nobud bo'ladi. O'tkir-surunkali formali qizilchada vodyanka (istisqo)da baliqlarda tangachalarning to'kilishi kuzatiladi. Ko'z atrofining yallig'lanish belgilari va tanani yara bosish kabilar bir vaktning o'zida namoyon bo'ladi. Bu davrda baliqlarning ko'p nobud bo'lishligi kuzatildi. Kasallik paytida jigar shishadi, taloq, o't pufagi kengayadi. Jigar rangi yashil bo'lib, ichakga quyilayotgan o't moddasi qorin bo'shlig'i a'zolariga quyiladi. Natijada, to'qimalarning rangi sarg'ayadi-sariq-yashil tusda bo'ladi va ichak trakti (yo'li) yallig'lanadi. Ichak bo'shlig'ida shilimshik modda va yiring to'planadi.

Baliqchilik ilmiy-tadqiqot xavzalarida baliqlarning mikozli (zamburug'li) kasalliklarining qo'zg'atuvchilari ya'ni zamburug'lar uchraydi. Baliqlarda mikozli kasalliklarni zamburug'larning 2 turi-Branchiomyces sanguinis, Branchiomyces demigrans keltirib chiqaradi. Klinikasi. Branchiomyces zamburug'lari saprofit holda hovuzlarning tubida yashaydi. Zamburug'lar osilib qolgan holda suvda bo'ladi. Baliqlar oyquloq orqali nafas olish jarayonida suvni filtrlaydi, natijada branximikoz qo'zg'atuvchilari jabraga kirib qoladi. Oyquloqning qon tomirlarida zamburug' giflarining yig'ilib qolishi natijasida qon

aylanish jarayonini to'sib qo'yadi. Branximikoz bilan kasallangan baliqlarni patologik materiallarini mikroskopik tekshirishda faqat yangi o'lgan baliqlarning oyquloqlaridan olindi[4].

Zamburug'ga qarshi kurashish uchun antiparazitar vannalardan foydalanish tavsiya qilinadi. Buning uchun vannada malaxit yashilidan har kuni yoki kun oralab, suvda 2 g preparat 4,5 l suvga 1:200 000 konsentratsiyasi tayyorlanib, bu eritmada zamburug' bilan kasal bo'lgan baliq 1 soat davomida saqlanadi. Metil ko'kida konsentratsiyasi 50 mg/l eritma tayyorlanib, baliq 12-10 soat saqlanadi. Baliqlarda suv o'tlari keltirib chiqaradigan kasalliklar uchraydi. Bu xafli kasallikni mikroskopik bir xujayrali suv o'ti *Mucophylus cyprini* keltirib chiqaradi.

Bu kasalliklar keyingi yillar avj olib ketishi natijasida xo'jaliklarda baliq maxsuldorligi pasayib ketishi kuzatilmoqda. Sababi 15– 20 yillar davomida sun'iy xavzalarda melioratsiya ishlari umuman olib borilmagan. Baliqlar yashashi uchun optimal gidrokimyoviy rejim, suv o'simliklaridan tozalash, ohaklash va baliqlar oziqasiga raqobat bo'ladigan kasallik tarqatadigan “xashaki” baliqlardan va boshqa xayvonlardan xalos bo'lish zarur. Tajribalardan ma'lumki uzoq yillar davomida xavza tagiga yig'ilib qolgan turli organik moddalar quyosh nurlarining va atmosfera ta'sirida mineralizatsiyalanishi tezlashadi. Polsha, Vengriya kabi Yevropa davlatlarida har 3 yilda xavzalarning suvi chiqarilib xavzaga o'rniga no'xat, makkajo'xori, karam, lavlagi kabi turli qishloq xo'jalik ekinlarini ekishadi. Bunday texnologiyani qo'llash natijasida baliq maxsuldorligi oshishi kuzatilgan. Xavzalarga doimiy ravishda normadagi fosforli, azotli, kalsiyli mineral o'g'itlar tashlanib turilishi maqsadga muvofiq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бауер О.Н. и др. –Болезни прудовых рыб. М. «Колос», 1981. 350 с.
2. Быховская – Павловская И.Е. – Паразитологические исследования рыб.1969. 295 с.
3. Османов С.О. –Паразиты рыб Узбекистана. Изд-во «Фан».Т. 1971. 390 с.
4. Эшова Х.С. Baliq kasalliklari. –Тошкент. 2013. 100 b.